

## OLIMNING YIGIT YOSHI

**Zuhriddin Isomiddinov**

Men Rahmatulloni qachondan beri bilishimni o‘ylab hech ko‘rmagan ekanman. Qarang, shunga ham qirq besh yil bo‘libdi. Birovning kimligini yaxshi anglash uchun bir pud tuzni birga yeyish kerak, deydi o‘rislar. Biz O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining yonma-yon joylashgan ikki bo‘limida ishlab, har kuni birga tushlikka chiqib, har bahorda pichan o‘rimi, yozda meva terish, kuzda paxta terimi, qishda esa ulkan muzxonalarda piyoz saralash kabi “umumxalq hashar”lariga qo‘sha boraverib, bu orada biron botmon tuzni teng hazm qilgan bo‘lsak ham ajabmas.

Har yil besh-olti oy biz ana shunaqa “umumxalq hashari” surgunida yashardik. Institutning, akademiyaning kattalari xabar olgani borishar, hammamizni to‘plab, sizlar – fanimiz kelajagisizlar, biz sizlarga ishonib yuribmiz, ammo lekin paxtani yanada ko‘proq teringlar”, deb tayinlab, oborgan sariyog‘ va makaronlarini qoldirib qaytishar edi.

Shuning ichida har birimiz qo‘ldan kelganicha ilm bilan shug‘ullandik. Rahmatullo Barakayev “O‘zbek bolalar adabiyoti” bo‘limining laboranti edi. Qiziqki, bu bo‘lim mudiri-yu, katta-kichik ilmiy xodimlarning yarmi bolalar adabiyoti sohasiga begona, ammo fan doktori bo‘lgani uchunoq mudir, fan nomzodi ekani sabab ilmiy xodimlikka tayinlangandi. Chunki shunday bo‘limlar ochilgan, shtatlarni esa to‘lg‘azish lozim edi. Bugun, oradan mana shuncha yillar o‘tgach, ortga ham bir nazar tashlasak, aytish mumkinki, bo‘limning asosiy mavzu-muammosi bilan Rahmatullo shug‘ullangan ekan – “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi aslida o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va rivojlanish yo‘llari haqida jiddiy tadqiqot bo‘lgan edi.

Tibbiyotda harqanday kasallikni davolashning dastlabki sharti bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘yish bo‘lganday, har bir ilmiy muammoni hal etishdan avval masalaning ildizlarini to‘g‘ri aniqlab olish darkor. Busiz – zo‘raki ilm paydo bo‘ladi.

Rahmatullo o‘zbek bolalar adabiyotining kelib chiqishi va ravnaq topishini uch ildizga – xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizdagi didaktik yo‘nalish va boshqa xalqlar adabiyotining bolalar uchun yozilgan asarlar tarjimai ta‘siriga bog‘lab, muammoning kalitini to‘g‘ri topa oldi.

Yana bir jihatni ham aytaylik. Bundan qirq yillar narida ayrim tilshunos va adabiyotshunos olimlar o‘z asarlarini rus tilida yozishga o‘ta boshlagan, dissertatsiyalar-ku, o‘zbek tilida aslo bitilmasdi. Hammayoqda milliylikka barham



berilib, erta-indin batamom o‘rislashishga qarab ketgandik. Bu – Bobur qoralanib, Cho‘lpon esa “shaxsi oqlangan, biroq ijodi oqlanmagan”, deb baholanib turgan bir palla. Ani shunday bir sharoitda, Rahmatullo Barakayev “oqimga teskari” suzdi: Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” kitobini joriy alifboga o‘tkazib, lug‘atini tuzib, so‘ngso‘z bitib, avval gazeta va jurnallarda, so‘ng katta adadda alohida kitob holida nashr ettirdi. “Tarixi anbiyo” kitobi bizda diniy ilm targ‘ibotining dastlabki mujdalaridan bo‘lgan edi. Darhaqiqat, haqiqiy ilm siyosat nog‘orasiga o‘ynamaydi, o‘z sarbast yo‘lida ilgarilay beradi. Rahmatullo Barakayev o‘shandan beri jadid adabiyotining ma‘rifatparvarlik yo‘nalishini, uning namoyandalari faoliyatini chuqur o‘rganib keladi.

Bilasiz, olim odamlardan ko‘pining shuurini ilmiy muammolar band etgan bo‘ladi, goho yonidan o‘tayotib salom bersangiz ham eshitmay qoladi. Rahmatullo esa buning aksi: nihoyatda hushyor, hech bir narsa nazaridan chetda qolmaydi. Bu xislat unga Toshkent pedinstitutini tamomlab, Buxoroning Vobkent tumanidagi o‘zi o‘qigan maktabda o‘quv ishlari mudiri, tuman maorif bo‘limida metodist bo‘lib ishlagan davrlarida yuqqan va bir umr hamroh bo‘lib qolgan. Shu sabablidirki, keyinchalik Toshkentga kelib, Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga ishga kirganidan keyin bu fazilat u kishining o‘zigagina emas, biz kabi xayolparast o‘rtoqlariga ham rosa asqotdi: qo‘shimcha ravishda qaysi institutda dars berar bo‘lsak, uning vaqt-soatini Rahmatullo bilan maslahatlashadigan, u kishini “zavuch aka” deb chaqiradigan bo‘ldik. Chunki qulay fursatni bu “zavuch aka”miz o‘zimizdan ham yaxshiroq belgilay oladi-da.

Men bu gaplarni hazil toifa qilib bekorga aytayotganim yo‘q. Ilmiy ishini yoqlagach, yana “zavuch” bo‘ldi: Rahmatullo qariyb yigirma besh yil – chorak asr ana shu Til va adabiyot institutida ilmiy kotib bo‘lib ishladi, hech kim bu lavozimda bu dargohda Barakayev domla kabi uzoq ishlay olgan emas. Bu esa, xudoning bergan har bir kunida kamida ikki-uch muammo, mashmasha, hech bo‘lmaganda, biron tashkiliy yumush degani. Hatto hozir ham, u kishini o‘z ixtiyoriga jo‘ngina qo‘yib yuboradigan anoyi yo‘q, boyagi zavuchlikni shogirdi G‘ulomjonga topshirgach, bugungi kunda O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashi a‘zosi, shu institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning ilmiy kotibi, yana bir ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi, “O‘zbek tili va adabiyoti” hamda “Adabiy meros” jurnallari tahrir hay‘ati a‘zosi.

Hamon o‘sha-o‘sha hushyor, sinchkov, saranjom – bariga ulguradi.

Rahmatullo, olim sifatida, bolalar adabiyotini shunchaki tadqiq qilib, institut ichida o‘tirib qolmadi, talay ijodkorlar bilan qalin aloqa bog‘lab, ularning asarlari haqida ko‘plab teran tahlilli maqolalar yozdi: nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganidan beri e‘lon qilgan ilmiy asarlarining soni bugun 240 tadan oshib



ketibdi. Buning to‘qqiztasi – monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari. Tursunboy Adashboyev bilan Anvar Obidjonlar Rahmatulloni bir ukalariday ko‘rgan bo‘lishsa, bugun uning o‘zi bolalar adabiyotining tadqiqotchilari va bolalar uchun yozadigan shoiru yozuvchilarga bir darg‘a – atrofidan ketishmaydi. Domlaning ilmiy va hayotiy sabog‘ini olgan yoshlarning sakkiz nafari qo‘lida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, hozir oliy o‘quv yurtlarida bolalar adabiyotidan saboq berishyapti.

Shu ma’noda, professor Rahmatullo Barakayevni yaxshi bir olimgina emas, balki faol bir fan tashkilotchisi, deb ham atasak ham xato qilmaymiz.

Hozir Barakayev domla “Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyatining tarixiy-tadrijiy takomili” borasidagi doktorlik dissertatsiyasini poyoniga yetkazyapti. Shuncha ish qilgan odam doktor emasmidi, deb so‘raydiganlar bo‘lsa, mening javobim shuki, bir paytlar yoshlarga xos bo‘lgan maksimalizm hammamizni ham chetlab o‘tmagan, har bir ishni o‘ta mukammal tarzda ado etishga intilish kuchli edi. Bo‘lmasa, o‘zbek bolalar adabiyotining tug‘ilishidagi boya men aytgan uch asosiy ildizni kompleks tadqiq etish doktorlik ishining obykti bo‘lishi kerak edi, Rahmatullo Barakayev uni nomzodlik ishidayoq o‘rganib, isbotlab bo‘lgan. Shu bilan qanoatlanib qo‘ymay, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotining, mumtoz adabiyotimizning, fors va rus tillaridan qilingan dastlabki tarjimalarning o‘zbek bolalar adabiyoti tug‘ilishidagi o‘rni va ahamiyati haqida o‘nlab maqolalar e’lon qildi, kitoblar nashr ettirdi...

Bir yigit qirq yilda bino bo‘lar emish. Ammo chin olim degani oltmishida, yetmishida kamolga yetadi. O‘ttizni to‘ldirganiga endigina qirq yil bo‘lib, qirchillama olim yoshiga yetgan birodarim Rahmatulloni bu sana bilan tabriklab, kitobni, adabiyotni sevuvchi yoshlarga ijod sirlarini kashf etishida yana bir yangi nafas, yanada ko‘proq kuch-g‘ayrat tilayman. Zero u vatanimizning istiqboli bo‘lgan ma’rifatli, ma’nan pok, kitobga oshno yoshlarni tarbiyalashda katta-katta ishlarga yeng shimarib turibdi.